

## **Oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlarida foydalanilgan test topshiriqlari bazasi asosida abituriyentlar uchun diagnostik test sinovlarini onlayn tashkil etish va sotish xizmatlarini amalga oshirish bo'yicha tadbirkorlar bilan davlat-xususiy sherikchiligi bo'yicha texnik talablar**

Davlat test markazi tomonidan oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlarida foydalanilgan test topshiriqlari bazasidan abituriyentlar uchun qulay bo'lgan masofadan turib test topshiriqlarini ishlash, bilimlarini monitoring qilish imkoniyatiga ega bo'lgan onlayn platforma orqali diagnostik testlarni tashkil etish, sotish xizmatlarini amalga oshirish uchun tadbirkorlar bilan hamkorlik qiladi. Tanlov go'libi va platforma uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

- platforma web brauzerlar (Google Chrome, Mozilla Firefox, Internet Explorer) hamda **android** va **iOS** mobil operatsion tizimlarida ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi;
- test topshiriqlari yopiq ko'rinishdagi tanlanadigan bitta to'g'ri javobli va bir nechta noto'g'ri javobli, matematik formula, kimyoviy element, grafik, jadval, rasm va xaritalardan va katta hajmdagi matnga tegishli bo'lgan bir nechta savollardan tarkib topgan guruhlashgan test topshiriqlaridan iborat bo'lib platformada abituriyentlar foydalanishi uchun qulay va sifatli tarzda ko'rsata olinishi talab etiladi;
- test topshiriqlarini MiKTeX, TeX, LaTeX matn protsessorlari yordamida kompilyatsiya qila olish imkoniyati mavjud bo'lishi;
- turli ko'rinishdagi statistik tahlillarni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lishi;
- platformaning UX/UI dizayni zamonaviy va foydalanuvchiga qulay bo'lishi;
- foydalanuvchilar istalgan vaqtda kirib, test kitoblarini sotib qolishi hamda real vaqt rejimida test natijasini olish imkoniyatiga ega bo'lish;
- platformadan 24/7 rejimida onlayn foydalanish imkoniyati mavjud bo'lishi;
- platformadan foydalanishda reklama va chalg'ituvchi ma'lumotlarning bo'lmasligi;
- tanlov go'libi tomonidan platformaga doimiy texnik xizmat ko'rsatish va uzluksiz ishlashini ta'minlashi;
- foydalanuvchilar murojaatlariga o'z vaqtida javob berib borish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- tanlov go'libi tomonidan platformadan foydalanuvchilarga qo'llanma va videoroliklar yaratish;
- tanlov go'libining dasturiy ta'minotlar ishlab chiqish bo'yicha kamida uch yillik tajribaga ega bo'lishi, ta'lim sohasida dasturiy ta'minotlar ishlab chiqqanligi va amaliyotga joriy etilganligi maqsadga muvofiq;
- test topshiriqlari formati hamda narxlari Davlat test markazi bilan kelishilgan holda amaldagi qonun hujjatlarga muvofiq belgilanadi
- test topshiriqlari bazasiga mualliflik huquqi Davlat test markazida, axborot tizimiga mualliflik huquqi esa tanlov g'olibida bo'ladi;
- tanlov g'olibida test topshiriqlarini Davlat test markazining ruxsatisiz uchinchi shaxsga yoki tashkilotga berishi va tarqatishi mumkin emas;

- test topshiriqlari bazasining yangilanib borilishi Davlat test markazi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;
- Davlat test markazi test topshiriqlari bazasini MiKTeX, TeX, LaTeX formatda joriy yilda ishlatilgan savollarni taqdim qiladi, tanlov g‘olibi yuqoridagi formatlarni matn protsessorlari yordamida kompilyatsiya qilish orqali har bir savolni onlayn ishlash hamda test natijalarini real vaqt rejimida ko‘rish imkoniyatini yaratishi lozim;
- har bir foydalanuvchiga test topshiriqlari kitobi unikal bo‘lishi tanlov g‘olibi tomonidan ta‘milanishi kerak;
- tanlov g‘olibi diagnostik test topshiriqlaridan tushadigan summani Davlat test markazi tomonidan nazorat qilib borish imkoniyatini yaratib berishi lozim.
- tanlov go‘libi sotilgan elektron kitoblar to‘g‘risida har oy Davlat test markaziga rasmiy hisobot berishi hamda dalolatnoma asosida tushgan mablag‘dan shartnoma bo‘yicha pul mablag‘larini Davlat test markazi hisobiga o‘tkazishi lozim.
- test topshiriqlarining matematik formula va rasmlari ko‘rinishini hisobga olgan holda foydalanuvchiga aniq, ravon hamda xatolarsiz chiqarib berilishi talab etiladi.
- foydalanuvchi tomonidan test savollarida xato va tushunmovchiliklar aniqlangan holda axborot tizimidan savolga e‘tiroz yoki taklif berish imkoniyati mavjud bo‘lishi, kelib tushgan etirozlarni Davlat test markazi mutaxassislariga muhokama qilish uchun kiritish lozim.
- tanlov g‘olibi Davlat test markazining “Virtual markaz” axborot tizimining mobil ilovalarini hech qanday to‘lovlarsiz bepul ishlab chiqadi va dastur kodlari bilan birgalikda Davlat test markaziga taqdim qiladi.
- ishlab chiqilgan “Virtual markaz” axborot tizimi mobil ilovalari Davlat test markazining intellektual mulki hisoblanadi.

*“Virtual markaz” axborot tizimining mobil ilovasiga qo‘yiladigan talablar va texnik topshiriq ilova qilinadi.*

Takliflar Davlat test markaziga 2022-yil 20-aprelga qadar yopiq konvertga joylangan holda yuborilishi lozim.

**Manzil:** 100084, Toshkent shahri, Bog‘ishamol ko‘chasi, 12-uy.

**Telefon:** (71) 235-19-14.

**Oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlarida foydalanilgan test topshiriqlari bazasidan abituriyentlar uchun onlayn diagnostik test sinovlarini tashkil etish, sotish xizmatlarini amalga oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar va ularning muddatlari**

<b>Bajariladigan ishlar</b>	<b>Bajarilish muddatlari</b>	<b>Bajaruvchi tomon</b>
Onlayn diagnostik test axborot tizimi uchun Web, Android hamda iOS uchun dizayn ishlab chiqish	15.04.2022	Tanlov g'olibi
Oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlarida foydalanilgan test topshiriqlari bazasini taqdim etish	15.04.2022	Davlat test markazi
Onlayn diagnostik test axborot tizimi uchun Web ilova ishlab chiqish testdan o'tkazish hamda ishga tushirish	25.04.2022	Tanlov g'olibi
Onlayn diagnostik test axborot tizimi uchun Android uchun mobil ilova ishlab chiqish testdan o'tkazish hamda ishga tushirish	30.04.2022	Tanlov g'olibi
Onlayn diagnostik test axborot tizimi uchun iOS mobil ilova ishlab chiqish, testdan o'tkazish hamda ishga tushirish	10.05.2022	Tanlov g'olibi